

VOYAGA ETMAGANLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIK LARNING OLDINI OLISH BO'YICHA TADBIRLAR VA YAKA TARTIBDAGI PROFILAKTIKA QILISH ASOSLARI

Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi 212-guruh kursanti

Mamadjonov Qobuljon Qosimjon o'g'li

Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi 209-guruh kursanti

Umarxo'jayev Asadbek Shuxratjon o'g'li

Ilmiy rahbar – Maxamadov Rustam Xabibullayevich

IV Akademiyasi Axborot texnologiyalari kafedrasini o'qituvchisi

Аннотация: В данной статье речь идет о правонарушениях несовершеннолетних и проводимых в нашей стране реформах по их предупреждению, а также о роли профилактической деятельности в предупреждении правонарушений и преступлений несовершеннолетних.

Ключевые слова: Несовершеннолетние, правонарушение, преступление, профилактика, меры индивидуальной профилактики, демократия, неизбежность наказания, воспитательная реабилитация

Annotation: This article is about juvenile delinquency and the reforms being carried out in our country to prevent them, as well as the role of crime prevention activities in the prevention of juvenile delinquency and crimes.

Key words: Juveniles, delinquency, crime, prevention, individual preventive measures, democracy, inevitability of punishment, educational rehabilitation

Annotatsiya: Ushbu maqola voyaga yetmaganlar o'rtasida vujudga keluvchi huquqbazarliklar va ularni oldini olish bo'yicha yurtimizda olib borilayotgan islohotlar hamda huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyati voyag a yetmaganlar o'rtasidagi huquqbazarlik va jinoyatlarni oldini olishdagi o'rni haqida boradi.

Kalit so'zlar: Voyaga yetmaganlar, huquqbazarlik, jinoyat, profilaktika, yakka tartibdagi profilaktik tadbirlar, demokratiya, jazoning muqarrarligi, ta'lif reabilitatsiyasi

Yurtimizda hozirgi kunda voyaga yetmaganlar huquqbazarliklarini oldini olishga alohida e'tibor berilmoqda. Voyaga yetmaganlarning huquqbazarliklarning o'ziga xos xusiyatlari shu jumladan, ushbu huquqbazarliklarining oldini olishda Fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari, Xalq ta'limi vazirligi, hamda IIO larining o'rni juda ham beqiyosdir. Voyaga yetmaganlar huquqbazarliklari oldini olish bu 18 yoshga to'lamagan shaxslar o'rtasida sodir etilishi mumkin bo'lgan, huquqbazarliklar

ularning sababalari sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarliklarning oldini olish bo'yicha faoliyatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarliklarning oldini olish, bunga ko'maklashuvchi sabab va holatlarni aniqlash;
- bolaning huquq va manfaatlarini himoya qilish;
- ijtimoiy va ta'lim reabilitatsiyasi voyaga yetmaganlar ijtimoiy xavfli vaziyatda bo'lganlar;
- voyaga yetmaganlar jinoyatga jalb etilishi mumkin bo'lgan holatlarni aniqlash va bartaraf etish.

Jinoyatchilikning oldini olish voyaga yetmaganlarga nisbatan insonparvarlik, demokratiya va oilani qo'llab-quvvatlash tamoyillariga, shuningdek, har bir voyaga yetmaganga, olingan ma'lumotlarning maxfiyligini hurmat qilgan holda individual yondashishga asoslanadi. Voyaga etmaganlar bilan ishlashda ularga huquqlari va o'z manfaatlarini himoya qilish imkoniyatlari tushuntiriladi.

Voyaga etmaganlar jinoyatining yakka tartibdagi profilaktikasi, 2014-yil 14-mayda qabul qilingan "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida" gi qonun hamda 2010-yil 29-sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar nazoratsiligi va huquqbazarliklар profilaktikasi to'g'risida" gi qonunga muvofiq moddaga muvofiq, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy yoki boshqa yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan muddat voyaga etmaganlar 18 yoshga to'lgunga qadar yoki huquqbazarliklarga sabab bo'lgan sabablar va imkon beregan shart-shaoritlar bartaraf etilgunga qadar davom etishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbazarliklar yakka tartibdagi profilaktika sub'ektlari

Huquqbazarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi zarur bo'lgan voyaga etmaganlarga quyidagilar kiradi:

- uysiz va qarovsiz;
- tilanchilik yoki sarson-sargardonlik;
- ijtimoiy sohada joylashgan. reabilitatsiya markazlari, ijtimoiy. boshpanalar, maxsus o'quv markazlari;
- psixotrop yoki giyohvandlik, mast qiluvchi moddalar, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish;
- ilgari sodir etilgan jinoyatlar uchun ular javobgarlikka tortilgan;
- ilgari sodir etilgan, lekin yoshiga qarab sodir bo'lмаган huquqbazarliklar;
- amnistiya yoki vaziyatning o'zgarishi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan;
- jinoiy huquqbazarlik sodir etishda ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchi;

- tarbiya koloniyalarida jazo o‘tayotganlar;
- ularga nisbatan hukmni ijro etish yoki jazoni o‘tashni kechiktirish belgilangan bo‘lganlar;
- yopiq turdagи maxsus ta’lim muassasalaridan yoki jazoni ijro etish tizimi joylaridan ularda bo‘lganida rejimni buzgan yoki qonunga xilof harakatlar sodir etgan taqdirda ozod etilganlar. Shuningdek, voyaga etmaganlar ulardan ozod qilingandan keyin ijtimoiy hayotga moslasha olmay tushkunlikka tushib qolsa, u holda reabilitatsiya tarzidagi yordam kerak bo’ladi.

Profilaktika yuqorida ko‘rsatilgan toifalarga mansub voyaga yetmaganlar o‘rtasida ham, ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillari o‘rtasida ham, agar ular o‘z farzandlarini tarbiyalash, boqish va o‘qitish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarmasa yoki bajarmasa, o‘tkazilishi mumkin. Va shuningdek, kattalar voyaga etmaganlarning xatti-harakatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan yoki ularni suiiste’mol qilgan hollarda.

Shuningdek, statistik ma’lumotlar va yurtimizda olib borilayotgan so’nggi islohotlar, inspektor-psixolog va xotin-qizlar bo‘yicha inspektorlar faoliyati haqida batafsil to’xtalamiz. Hozirda respublikada jami 10 115 ta maktablarda tahsil olib kelayotgan 6 mil 243 ming 764 nafar o‘quvchilar bilan inspektor-psixologlar tomonidan olib borilgan o‘rganish ishlari (60 094 nafarining xonadonlariga borib yashash sharoiti o‘rganildi, 57 173 nafarining ota-onasi bilan suhabatlar olib borildi, 6 187 nafarining ota-onasi MJtKning 47-moddasi asosida ma’muriy javobgarlikka tortildi, 63 435 nafari bilan bevosita profilaktik ishlar olib borildi) jarayonida, ularning 52 069 nafari (0,83 foizi) tarbiyasi og‘ir ekanligi aniqlandi. Jumladan: Toshkent shahrida 326 ta mакtab faoliyat ko‘rsatadi, 459 913 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda, ularning 6 744 nafari (1,4 foizi) tarbiyasi og‘ir;

Toshkent viloyatida 884 ta mакtab faoliyat ko‘rsatadi, 505 131 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda, ularning 4 722 nafari (0,93 foizi) tarbiyasi og‘ir;

Samarqandda 1 267 ta mакtab faoliyat ko‘rsatadi, 746 465 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda, ularning 2 900 nafari (0,38 foizi) tarbiyasi og‘ir;

Sirdaryoda 318 ta mакtab faoliyat ko‘rsatadi, 155 948 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda, ularning 1 693 nafari (1,08 foizi) tarbiyasi og‘ir;

Jizzaxda 553 ta mакtab faoliyat ko‘rsatadi, 259 369 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda, ularning 1 878 nafari (0,72 foizi) tarbiyasi og‘ir;

Buxoroda 537 ta mакtab faoliyat ko‘rsatadi, 321 919 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda, ularning 2 726 nafari (0,84 foizi) tarbiyasi og‘ir;

Navoiyda 368 ta mакtab faoliyat ko‘rsatadi, 181 866 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda, ularning 1 458 nafari (0,8 foizi) tarbiyasi og‘ir;

Farg‘onada 959 ta mакtab faoliyat ko‘rsatadi, 671 442 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda, ularning 4 869 nafari (0,72 foizi) tarbiyasi og‘ir;

Andijonda 767 ta maktab faoliyat ko'rsatadi, 571 093 nafar o'quvchi tahsil olmoqda, ularning 10 992 nafari (1,92 foizi) tarbiyasi og'ir;

Namanganda 712 ta maktab faoliyat ko'rsatadi, 509 491 nafar o'quvchi tahsil olmoqda, ularning 4 568 nafari (0,89 foizi) tarbiyasi og'ir;

Surxondaryoda 932 ta maktab faoliyat ko'rsatadi, 511 559 nafar o'quvchi tahsil olmoqda, ularning 1 757 nafari (0,34 foizi) tarbiyasi og'ir;

Qashqadaryoda 1 217 ta maktab faoliyat ko'rsatadi, 641 213 nafar o'quvchi tahsil olmoqda, ularning 3 784 nafari (0,59 foizi) tarbiyasi og'ir;

Xorazmda 549 ta maktab faoliyat ko'rsatadi, 357 247 nafar o'quvchi tahsil olmoqda, ularning 2 639 nafari (0,73 foizi) tarbiyasi og'ir;

Qoraqalpog'stistonda 726 ta maktab faoliyat ko'rsatadi, 351 108 nafar o'quvchi tahsil olmoqda, ularning 1 339 nafari (0,38 foizi) tarbiyasi og'ir;

Tarbiyasi og'ir 52 069 nafar o'quvchilarning 36 790 nafari: 31 206 nafari darsga kelmasligi sababli; 1 814 nafari o'qituvchini mensimasligi sababli; 691 nafari noqonuniy jismlar olib yurganligi sababli; 2 750 nafari o'quvchilar bilan janjallashganligi sababli; 272 nafari pornografik mahsulotlar saqlaganligi sababli; 57 nafari zo'ravonlik yoki shafqatsizlikni targ'ib etuvchi materiallar saqlaganligi sababli nazoratga olingan. Inspektor-psixologlar tomonidan olib borilgan profilaktik tadbirlar natijasida to'g'ri yo'lga o'tganligi uchun 33 748 nafar (tarbiyasi og'ir voyaga yetmaganlarning 64,8 foizi) voyaga yetmaganlar nazoratdan chiqarilib, 18 321 nafar (tarbiyasi og'ir voyaga yetmaganlarning 35,2 foizi) voyaga yetmaganlar bilan hozirgi kunda ham profilaktik ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, olib borilgan profilaktik tadbirlar jarayonida 14 369 nafar voyaga yetmagan shaxsga nisbatan to'plangan hujjalalar Voyaga yetmaganlar bilan ishslash komissiyalariga ko'rib chiqish uchun yuborilib, ularning 235 nafari o'quv tarbiya muassasalariga (shundan 69 nafari Respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasasiga, 166 nafari Respublika qiz bolalar o'quvtarbiya muassasasiga) joylashtirilgan. Joriy yilning 11 oyi davomida, ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan otaonasi qarovisiz qolgan jami 10 674 nafar voyaga yetmaganlar Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga qabul qilingan. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga olib kelingan voyaga yetmaganlarning 4 119 nafari ota-onasiga qaramog'iga qaytarildi, 121 nafari o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirildi, 146 nafari ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirildi, 35 nafari mehribonlik uylarga, 76 nafari vasiylik organlariga topshirildi. Voyaga yetmagan va yoshlar bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida ta'lim, madaniy-ko'ngilochar va sport-sog'lomlashdirish muassasalarida 5 323 ta turli to'garaklar tashkil etildi

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklar profilaktikasining avvalgi tizimi huquqbuzarlik va jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganni tegishli ta'sir chorasini ko'rish maqsadida aniqlashni ko'zda tutgan

bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son qarorini qabul qilishdan asosiy maqsad, g'ayriijtimoiy harakat sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoning muqarrarligini ta'minlanishini inkor etmagan holda: birinchidan, inspektor-psixologlarning xizmat xonasini umumta'lim maktablarida joylashtirib, har bir o'quvchini bevosita o'rganib, ularning orasidan tarbiyasi og'ir va g'ayriijtimoiy harakat sodir etishga moyillarini ajratish; ikkinchidan, huquqbazarlik va jinoyat sodir etishga moyil voyaga yetmaganlarning kelajakda huquqbazarlik odir etishiga omil bo'lib xizmat qilayotgan holatlarni (nosog'lom muhit, og'ir moddiy yoki ijtimoiy hayot va h.k.) bartaraf etish yo'li bilan huquqbazarlikni olini olish; uchinchidan, huquqbazarlik sodir etishga moyil voyaga yetmaganni aniqlab, uni qayta tarbiyalash yo'li bilan huquqbazarlikning oldini olish hisoblanadi. Zero, katta hayotning ilk bosqichlarida shaxsga berilgan jazo, ushbu jazo adolatli bo'lsa ham voyaga yetmagan shaxsning butun umrini izdan chiqarib yuborishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: O'zbekiston, 2018. 2
2. Lex.uz (normativ hujjatlarbazasi)
3. www.google.com (butun jahon qidiruv tizimi)
4. ede.uz (milliy ta'lim internet portal)
5. 2021 yil 2 aprel "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-5050
6. Mirziyoyev M.M "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - T: «O'zbekiston»
7. <https://Stat.uz> (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika qo'mitasi)